

Rossiyada hayot kechirishning muhim qoidalari



Rossiya Federatsiyasi hududida bo'lgan har bir xorijiy fuqaro, mamlakat qonunlarini, urf-odatlarini va an'analarini hurmat va rioya qilishi kerak! Rossiyaga kelishdan oldin ular bilan tanishib chiqish zarur

Barcha insonlar uchun eng asosiy qoida — o'zaro bir-biriga hurmat.

Bizning mamlakatda, millat yoki diniy belgisiga ko'ra kimnidir kamsitish yoki haqorat qilishga yul qo'yilmaydi. Bu insonlarning uzaro muloqotdagi eng muhim va asosiy qoidalaridan biridir. Barcha odamlar, etnik farqligiga qaramay: millatidan, tilidan, tashqi ko'rinishidan, uzini milliy odatlari va o'ziga xos bo'lgan xulq-atvoridan qat'iy nazar, ommaviy xulq-atvor qoidalariga rioya qilishi shart.

Orenburg viloyatiga kelgan mehmonlar, mahalliy aholining turmush tarziga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari, sabrli bo'lishlari, qo'pollik qilmasdan, mahalliy madaniyatni mensimaslik yoki davlat rahbarlariga nisbatan haqoratli so'zlar aytmassligi kerak.

Ko'chada o'zini tutishning asosiy qoidasi — bu atrofdagilarga noqulayliklar va ko'ngilsiz holatlarni keltirmaslik.

Mahalliy aholi bilan muloqot

Mahalliy aholi bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun, siz jamiyatdagi quyidagi xatti-harakatlar qoidalarini bilishingiz kerak:

- Notanish odam bilan gaplashayotganda, unga xushmuomalalik bilan "Siz" deb murojaat qilish odat tusiga kiradi.
- Ruschada aka yoki opa, ya'ni "Brat" yoki "Sestra" deb begona odamga murojaat qilishingiz, qarindosh yoki yaqin tanishlaringiz bo'lmagan odamlar bilan muloqot qilish uchun mos emas.
- Agar siz odamga murojaat qilishingiz kerak bo'lsa, avval "salom" va keyin esa "xayr" iboralarini ishlatishni unutmang. Agar sizga shu tarzda murojaat qilinsa, unga javob berishingiz kerak bo'ladi, aks holda bu qo'pollik va hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi va ziddiyatli vaziyatga olib kelishi mumkin.
- Agar siz notanish odamdan biror narsa so'ramoqchi bo'lsangiz, salomlashish o'rniga ularni bezovta qilganingiz uchun kechirim so'rashingiz ham mumkin. Masalan, "Kechirasiz, menga yordam bera olasizmi?", "Kechirasiz, dorixona qaerda?", "Kechirasiz, hozir soat nechki bo'ldi?".
- Biror kishi sizga yordam berganidan so'ng, odatda unga: «Spasibo» yoki «Blagodaryu Vas!», ya'ni «Rahmat» yoki «Minnadorman!» deyiladi.
- Agar sizga yordam yoki maslahat kerak bo'lsa, jamoat joyidagi har qanday notanish odamga yordam so'rab murojaat qilishingiz mumkin – sizga albatta yordam berishadi. Lekin odamning bandligini ko'rsangiz (bola bilan ketyapti, telefonda gaplashyapti, kitob o'qiyapti) - unga halaqit bermaslik uchun, boshqa iloji bo'lmagan vaziyatlardagina murojaat qiling.



Rossiyada hayot kechirishning muhim qoidalari


Rossiya dunyoviy va ko'p millatli davlat ekanligini muhimi unutmaslik kerak.



Rossiyada davlat dini yoki biron bir dinning qonunlardan ustunligi yo'q, shuning uchun diniy mavzularga tegishda ehtiyot bo'ling. Rossiya Konstitusiyasini o'zgartirishga va Rossiya qonunchiligiga zid ravishda shariat qonunlariga muvofiq yashashga harakat qilishning hojati yo'q.

Rossiya aholisining aksariyati pravoslavlardir. Ammo mamlakatimizda yashovchi mahalliy xalqlar orasida musulmonlar, buddistlar va boshqa din vakillari ham bor, shu sababli, siz Rossiyada bo'lgan paytda, barcha din va millatlarni hurmat qilishingiz kerak.

Rossiyada jamoat joylarida biron bir dinga mansubligini ommaga ko'rsatib namoyish etish qabul etilmaydi, masalan (ko'chada diniy marosimlarni bajarish, jamoat joylarida namoz o'qish, ovoz chiqarib ibodat yoki duolar o'qish va hokozo). Buning uchun maxsus joylar mavjud - ibodatxonalar, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, ibodat xonalari va hokozo.



Rossiyadagi barcha davlat muassasalari, xususan maktablar va kasalxonalar dunyoviydir. Shunda agar siz, bolalaringiz bilan Rossiyaga kelsangiz va ularni ta'lim muassasalariga berib ta'lim berib o'qitish rejasi bo'lsa, esda tuting, ta'lim muassasi sizdan qat'iy belgilangan maktab kiyim formasini kiyishni talab qilishi va diniy kiyimda darslarga borishni taqiqlashi mumkin. Bu qonuniy talabdir!


Rossiyada ommaviy ravishda hayvonlarni qurbonlik qilib suyish marosimlarini o'tqazish qat'iy man etiladi. Buning uchun ma'muriy javobgarlik mavjud.

Rossiyada o'qotar va sovuq qurollarni olib yurish taqiqlangan. Bu siz uchun va atrofdagilar uchun ham xavfli bo'lishi mumkin. Shuningdek, masalan, Rossiyada to'yda havoga o'q otish an'anasi umuman qabul qilinmaydi va mumkin emas, chunki ushbu xarakteristikalar sudlanish jarayoniga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, yodgorliklarda, madaniy diqqatga sazovor joylarda, muzey va boshqa madaniy me'ros va tarixiy joylarda nomaqbul va qoidalarga zid ravishda o'zini tutmaslik kerak. Ayniqsa Rossiyada, har doim Ulug' Vatan urushi xotirasiga alohida munosabat ko'rsatiladi, ya'ni me'ros ehtiyotkorlik bilan saqlanib, avloddan-avlodga o'tadi. Shuning uchun Ulug' Vatan urushi yodgorliklarida, shu jumladan abadiy olovda o'zini munosib va hurmat bilan tutish kerak va ularni tahqirlash qattiq jazolanadi.

Rossiyada nos va boshqa giyohvand moddalarni tibbiy maqsadlarda foydalanishdan tashqari tarqatish taqiqlangan. Shifokorlar nosning sog'liq uchun xavfli tomonlarini aniqlashgan, ya'ni u o'ziga qaram qilishi, o'pka, og'iz, tomoq va oshqozon saratoniga olib keladi. Iste'mol qilishning oqibatlari bu, bosh og'rig'i, hushidan ketish va erkaklik quvvatining susayishidir.

Tartibni saqlashning muhim elementi - tinchlikni saqlashdir! Rossiyada shovqin qilish taqiqlangan va qonuniy belgilangan soatlar mavjud, ushbu qoidaga rioya qilmaslik uchun jarimalar nazarda tutilgan. Ya'ni, xonadonlarda shovqinli ishlarni soat 9:00 dan soat 19:00 gacha amalga oshirilishi kerak, bunda soat 13:00 dan soat 15:00 gacha tanaffus qilgan holda («tinchlik soati») amalga oshiriladi.



Ko'chada o'zini tutish asoslari

Ko'chada/parkda nima qilmaslik kerak:

- Yo'lning qatnov qismida yurish (mashinalar yurishjoylarida) - bu xavfsiz emas;
- Baland ovozda gapirish, baqirish, qullar bilan qo'pol ishoralar qilib silkitish, janjalashish (farqi yuq qaysi tilda bo'lishi);
- Telefon baland ovoz karnayidan yoki video qo'ng'iroqda baland ovozda gaplashish;
- Quloq naushniklaridan foydalanmasdan baland ovozda musiqa tinglash/baland ovozda videolarni tomosha qilish;
- Kiyinmagan holda yoki yarim kiyingan holda ko'chaga chiqish (faqat shim (shortikda) va tapochkada);
- Axlat tashlash (axlat bokiga yoki axlat qutisiga tashlamasdan boshqa joylarga), tupurish, yong'oq yoki semichka chaqib puchoqlarini tuflab tashlash;
- Boshqa odamlarni turtib, omma orasidan yurish (aylanib o'tish afzalroqdir), gavjum ko'chada yugurib yurish;
- O'yin maydonchalari va uylarga kirish joylarida shahar mulkiga zarar yetkazish, parklarni buzish, uylarga yozish va chizish, avtomobillarning oynak-derazalarini sindirish, ko'chalardagi gulzorlardagi gul va o'simliklarni uzish va hokazo.
- Fiziologik ehtiyojlarni qondirish (hojatga borish);
- Katta guruhlarga to'planish, savdo do'konlari, kafe, ko'p qavatli yashash uylarning kirish yoki chiqishida tuplanib turish (o'tirish) va hokazo, shuningdek, o'tayotganlarga nisbatan tajovuzkorlikni namoyish etish;



- Ko'chadagi yo'lovchilarni o'zini tilida muhokama qilish, boshqa odamlar oldida o'zini tilida pichirlashib gaplashish, shuningdek, ularga barmoq bilan ishora qilish. Bu tushunmovchilik va nizolarga olib kelishi mumkin; *Har bir mamlakatning o'ziga xos madaniy an'analari, urf-odatlar va jamiyatda o'zini tutish xulq-atvor qoidalari bor, siz uchun odatiy bo'lib tuyuladigan ba'zi xaddi-xarakatlar va narsalar Rossiyaliklar uchun qabul qilinmaydi va aksincha teskarisi bo'lishi mumkin.*

Jamoat transportida xulq-atvor asoslari

Jamoat transportidan foydalanish paytida qat'iyan man yetiladi:

- O'zaro baland ovozda gaplashish, telefon baland ovoz karnayidan yoki video qo'ng'iroqda baland ovozda gaplashish;
- Haydovchini yo'ldan chalg'itgan holda, uni gapga tutib gaplashish.
- Quloq naushniklaridan foydalanmasdan musiqa tinglash.
- Axladni tashlash, jamoat xududidini ifloslantirish.
- Kirlangan, iflos kiyimlarda yurish.
- Alkogol' ichimliklarni iste'mol qilish va ovqatlanish.
- Chekish.

Rossiyada jamoat joylarida chekish va spirtli ichimliklar ichish umuman taqiqlangan. Boshqa odamlarga halaqit bermaslik uchun, chekish uchun alohida ajratilgan maxsus joylar mavjud (chekish xonalari). Shuningdek, alkogol' ichimliklar iste'mol qilish uchun maxsus joylar - kafelar, barlar, restoranlar mavjud. Agar siz buni jamoat joylarida qilsangiz, jamoat tartibi bo'zilgani uchun sizga nisbatan jarima qo'llanishi mumkin! Jarima miqdori 500 dan 3000 rublgacha belgilangan.



"Xavfsiz shahar" tizimi Rossiyaning barcha shaharlarida ishlaydi. Bu shaharning har bir fuqarosining xavfsizligini ta'minlash maqsadida, jamoat joylarida va turar-joy uylarining hovlisida doimiy kuzatuvni ta'minlaydi. Shuning uchun, polisiya xodimlariga qoidabuzarni tezda topish muammo emas.

Aksincha, jamoat transportida nima qilish kerak:

- Sumkalar va ryukzaklarni yechib olish va boshqalarga yurishi uchun xalaqit bermasligini ta'minlash.
- Yoshi kattalarga, qariyalarga, yosh bolalarga va homilador ayollarga joy berish. Agar transportda o'tirish uchun bo'sh o'rindiqlar bo'lsa, avval shu yo'lovchilar, sung ayollar va keyingina- erkaklar o'tirishadi.
- Jamoat transporti to'xtash paytida yo'lovchilar birinchi navbatda tushishadi, shundan keyin yangi yo'lovchilar kirishadi. Bu yeshiklar bo'lgan har qanday joylarga ham tegishlidir: avval odamlar tashqariga chiqishlari kerak, shunda boshqalar xavfsiz tarzda ichkariga kirishlari mumkin;
- Agar siz keyingi bekatda tushishingiz kerak bo'lsa, oxirgi daqiqagacha kutmasdan, shoshilib boshqa yo'lovchilarni turtib o'tmaslik uchun, transportning chiqish eshigiga oldindan borvoling. Shuningdek, siz boshqa yo'lovchilardan ularni chetlab o'tish kerakligini bilish uchun keyingi bekatda tushishlarini so'rashingiz mumkin.
- Yiqilmaslik uchun, tutqichlarni ushlab turish zarurdir.
- Yo'lovchilarning majburiyati yo'l haqqi uchun pul to'lash, ya'ni chipta sotib olishdir. Chiptalarni konduktor (jamoat transporti salonidagi maxsus shaxs) yoki haydovchi tomonidan sotiladi. Katta shaharlarda, yo'lovchilar jamoat transportida bank terminali orqali yo'l haqqi uchun to'lovni amalga oshirish mumkin. Agar yo'l haqqini to'lamasangiz, jarima to'lashingiz majbur bo'lasiz. Jarima har doim chipta sotib olishdan ko'ra qimmatroq bo'ladi.



Qarama-qarshi jins bilan xulq-atvor asoslari

Rossiyada ayollarga bo'lgan munosabat juda yehtiyotkor va ular yeraklar kabi teng huquqlarga yega, shuning uchun ularga mos ravishda munosabatda bo'lish kerak.

- Rossiyada ko'p xotinelilik va ko'p erlik taqiqlangan. Yerak yoki ayol faqat bitta qonuniy turmush o'rtog'iga ega bo'lishi mumkin.
- Rossiyada nikohlar faqat yerak va ayol o'rtasida tan olinadi. Mamlakatda bir jinsli nikoh taqiqlangan, shuningdek, LGBT+ harakati yekstremistik deb tan olingan.
- Rossiyada rasmiy nikoh faqat FHDYo ro'yxatga olish idoralarida ro'yxatdan o'tgan tan olinadi. Diniy nikohlar rasmiy hisoblanmaydi.
- Rossiyada soxta nikohlar taqiqlangan. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday nikohlar xorijiy fuqarolar tomonidan o'z manfaatlarini ko'zlagan maqsadlarda – Rossiya Federatsiyasi fuqaroligini olish uchun ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Agar nikoh soxta bo'lsa, qoidabuzarlar jiddiy oqibatlariga duch kelishadi va kelajakda fuqarolikni olish imkoniyati bo'lmaydi.
- Rossiyada notanish ayollar va yeraklarga jismonan teginish mumkin emas (teginish, quchoqlash, qo'l yoki kiyimni ushlab va hokazo), begona bolalarga nisbatan kuchli e'tiborda bo'lish. Bunday harakatlarni ta'qib qilish deb hisoblash mumkin. Jinsiy xarakterdagi harakatlarni sodir yetishga majburlash jarima yoki qamoq bilan jazolanadi.
- Rossiya ayollari an'anaviy ravishda yorqin, ba'zan ochiq kiyim kiyishadi, ularning kiyinishi me'yorga mos va buni boshqa ma'noda tushunmaslik, uni ayblash yoki tanishmoqchi bo'lganligini bildirmaydi.
- Sizga yoqqan ayol yoki erkakning e'tiborini tortish uchun, hech qanday tovush yoki ovoz chiqarmasligingiz kerak (hushtak chalish, yoki boshqa).
- Notanish ayollar va erkaklarni restoranga borishga, tashrif buyurishga yoki sayrga taklif qilish tavsiya yetilmaydi.
- Jismoniy zo'ravonlik, ayniqsa ayollar, qariyalar va bolalarga nisbatan man etiladi.

**Atrofdagilarga nisbatan har doim muloyim va xushmuomala bo'ling!
Esingizda bo'lsin, atrofdagilar sizning xatti-harakatlaringiz va tashqi ko'rinishingizga qarab, mamlakatingiz haqida xulosa chiqaradi!**

Подготовлено Министерством региональной политики
Оренбургской области